



## **NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

---

"PEDAGOGIK TA'LIM VA TARBIYA  
TRANSFORMATSIYASIDA FUNDAMENTAL,  
AMALIY VA INNOVATSION TADQIQOTLARNING  
KONSEPTUAL ASOSLARI"

**Respublika ilmiy-amaliy  
anjumani dasturi**

**«Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Namangan 2025-yil.**

To‘plamga 2025-yil 29-may kuni institutda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumanda ishtirok etgan Oliy o‘quv yurtlar professor-o‘qituvchilar, doktorantlari, magistratura mutaxassisligi va bakalavriat yo‘nalishi talabalari hamda ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlarining ma’ruza materiallari kiritilgan. Chop etilgan materiallarining mazmuni va haqqoniyligiga mualliflar mas’ul hisoblanadilar.

**Anjuman tashkiliy qo‘mitasi**

Husanov B.E	- NamDPI rektori, rais
Qodirxonov M.R	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorekтори
Yuldashev J.A	- Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash sektorи
Abdullayev T.U	- Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani
Matkarimov A	- Aniq fanlar kafedrasi mudiri
Abdullayev S.X	- Aniq fanlar kafedrasi professori
Najmiddinova X.Y	- Aniq fanlar kafedrasi professori
Uluxanov I.T	- Aniq fanlar kafedrasi professori
Xudayqulov Sh.S	- Aniq fanlar kafedrasi dotsenti
Eshnazarova M.Y	- Aniq fanlar kafedrasi dotsenti
Tursunova Sh.B	- Aniq fanlar kafedrasi dotsenti
Mirzayev T.S	- Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Yusupov D. A	- Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Alijanov D.A	- Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Muxitdinova M.J	- Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Mo‘minova M.U	- Aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ibroximov M.A	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Ziyamova G.T	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Xusayinova G	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Maxsudova Sh.M	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Turdaliyeva N.A	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
O‘ktamaliyev I	- Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
G‘ayniddinov Sh.T	- Aniq fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Samatov A	- Aniq fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Qurbanov M	- Aniq fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

NamDPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti kengashining 2025-yil 30-maydag‘i 9-sonli qaroriga asosan anjuman materiallari chop etishga tavsiya qilingan.

62.	HILBERT SPACE OPTIMIZATION: A NOVEL QUANTUM ALGORITHMIC APPROACH TO SOLVING COMPLEX MATHEMATICAL SYSTEMS Raupova Mohinur, Shokirova Saidabonu	304
63.	O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA GRAMMATIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH Usmonova Zamira	313
64.	O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'RGATISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING SAMARADORLIGI Salisheva Zilola Ismailovna	316
65.	GEOMETRIK PROGRESSIYANING BA'ZI BIR TUSHUNCHALARI Yusupov Muxtorbek, Xonaliyeva Shahina, Do'stnazarova Sarvara	319
66.	GRAFLAR NAZARIYASINING ELEMENTLARI VA ULARNING BA'ZI TADBIQLARI Yusupov Muxtorbek, Yusupov Adham, Sobitjonov Muhibullo	322
67.	TO'PLAMLAR NAZARIYASI: DISKRET MATEMATIKADAGI AHAMIYATI VA METODLARI Yusupov Muxtorbek, Azimov Maqsat, Aqberdiyev Daulet	326
68.	ARIFMETIK PROGRESSIYANING BA'ZI BIR TUSHUNCHALARI Murtozaqulov Zafar, Akmalova Munisa, Oripova Dildora	331
69.	KOMBINATORIKA USULLARI VA ULARNING TAHLILIIY IMKONIYATLARI Murtozaqulov Zafar, Bazarboev Eldorbek, Solijonov Shohjahon	334
70.	KVADRAT TENGLAMALARNI YEECHISH USULLARI Murtozaqulov Zafar, Alijonova Sarvinozxon, Bozorova Gulsevar	337
71.	O'QUV FAOLIYATIDA MOTIVATSIYANI OSHIRISH VA UNI SAMARALI BOSHQARISH Xusanova Nigina Baxtiyor qizi	340
72.	TENGLAMALARNI YECHISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA SHAKLLANADIGAN MUHIM KOMPETENSIYALAR Davlatova Munisa Aminovna	343
73.	ОҚЫТУ ЖӘНЕ ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ТӘЖІРИБЕНІ ҮЙІМДАСТЫРУ ФОРМАЛАРЫ Атабаев Серикбай Сапарович	347
74.	KASBIY SHAKLLANISH VA KASBIY FAOLIYATNI TADQIQ ETISH PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA To'xtayeva Jasmina Bobomurod qizi Suleymanova Arujan Bauirjan qizi Yuldasheva S.M	350
75.	YOSH SPORTCHILAR ORASIDA YENGIL ATLETIKA TURLARINI TANLASH OMILLARI VA MOTIVATSIYA Xamidullayev Jaloliddin Faxriddin o'g'li	354
76.	EMOTSIONAL INTELLEKT VA UNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARDAGI O'RNI Yo'ldashova Marjona Bahodir qizi Aburasulov Jahongirmirzo	358
77.	JISMONIY TARBIYA DARSALARIDA VOLEYBOL O'YINIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Xamidullayev Jaloliddin Faxriddin o'g'li	362
78.	GURUHDAGI IJTIMOIY ROLLAR VA LIDERLIK PSIXOLOGIYASI Yo'ldashova Marjona Bahodir qizi Aburasulov Jahongirmirzo	366
79.	FUTBOL O'YINIDA JAMOAVIYLIKNI SHAKLLANTIRISH VA IJTIMOIY MOSLASHUVNI RIVOJLANTIRISH Xamidullayev Jaloliddin Faxriddin o'g'li	369

әдістер мен формаларды қолдану педагогикалық үдерістің сапасын арттырады және оқушылардың жан-жақты дамуына мүмкіндік береді.

## **ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР**

1. Қоянбаев Ж.Б., Қоянбаев Р.М. (2004). Педагогика. – Алматы: Рауан.
2. Әбенова З.Ш. (2015). Оқыту технологиялары мен әдіс-тәсілдері. – Алматы: Білім.
3. Мамедов Ш.Ш. (2020). Педагогикалық тәжірибелі ұйымдастыру және оны тиімді басқару. – Алматы: Қазақ университеті.
4. Тұрғынбаева Б.А. (2017). Оқыту формалары және әдістері. – Алматы: Дарын.
5. Педагогикалық технологиялар. (2009). Қазіргі заманғы оқыту формалары мен әдістері. – Мәскеу: Просвещение.
6. Хмель А.С. (2019). Дистанциялық оқыту: теория мен практика. – Астана: Фолиант.
7. Ермакова И.И. (2018). Оқыту формаларының қазіргі даму тенденциялары. – Москва: Академия.
8. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform. Harvard Educational Review, 57(1), 1-22.
9. Hattie, J. (2012). Visible Learning for Teachers: Maximizing Impact on Learning. – London: Routledge.
10. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press.

## **KASBIY SHAKLLANISH VA KASBIY FAOLIYATNI TADQIQ ETISH PSIXOLOGIK - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

To‘xtayeva Jasmina Bobomurod qizi Psi-24/1-guruh talabasi  
Suleymanova Arujan Bauirjan qizi Psi-23/1-guruh talabasi  
Ilmiy maslahatchi: ChDPU Psixolgiya kafedrası  
katta o‘qituvchisi Yuldasheva S.M

Shaxsning kasbiy kamoloti masalasi uning hayotida muhim o‘rin tutadigan faoliyat yo‘nalishidir. Bu faoliyat yo‘nalishini to‘g‘ri tanlash va belgilash keng ko‘lamdagи shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi. Shunga ko‘ra, quyidagi mulohazaga e’tibor qaratish ancha muhimdir. “Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari

ustuvorligiga ko‘ra munosibrog‘ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo‘nalganlikka nisbatan bir muncha murakkabrog‘ jarayon. Chunki shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallahsga tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi. Kasbiy shakllanish va kasbiy faoliyat muammolarini tadqiq etish dolzarb va keng qamrovli psixologik - pedagogik muammo sifatida baholash uchun barcha asoslar mavjud. Mazkur muammo ijtimoiy - iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida shaxs oldiga yanada kattaroq talablar qo‘yadi.

XXI asrning boshidagi kasb-korlikka doir axborotlar ko‘laming ortganligi, inson ehtiyojlarining o‘sib borayotganligi, yangi sohalarning paydo bo‘layotganligi, kasb yo‘nalishlarining o‘zgarib borishi va shaxsning hayotga munosabatining o‘zgarayotganligi sifatlari bilan xarakterlanadi.

Ma’lumki, shaxsning kasbiy shakllanishi to‘rt asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: a) kasbiy intilishlarning shakllanishi; b) kasbiy ta’lim; v) kasbiy moslashish; g) shaxsning kasbiy faoliyatda qisman va to‘liq o‘zini-o‘zi bag‘ishlashi. Mazkur bosqichlarga mos holda kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni ham sodir bo‘ladi. Kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni psixologik adabiyotlarda etarli darajada chuqur yoritilgan bo‘lib, ayniqsa, psixologlar kasbiy intilishning shakllanishi va kasb tanlash bosqichlariga alohida e’tibor qaratganlar.

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar aholidan yuksak madaniyatni, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan kasbiy faoliyatning ikki xil jihat psixologik va pedagogik jihatlari farqlanadi. Kasbiy faoliyatning psixologik jihatlari xodimlarning kelajakda o‘z burch va majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun ularga zarur bo‘lgan psixologik – pedagogik tamoymlar, kategoriylar va tushunchalarni singdirish hamda kasb madaniyati va etikasi talablariga muvofiq hatti – harakatlarini izohlash, xizmat vazifalarini to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish, o‘z kasbiga mehr – muhabbat, insonga hurmat bilan qarashni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi.

Kasbiy faoliyatning pedagogik jihatlari esa xodimlar xulqidagi mavjud axloqiy – siyosiy xususiyatlarda aks etib, axloqiy prinsiplar va me’yorlarning shaxs ongida qanday hosil bo‘lishi bilan belgilanadi. Axloqning shakllanishida atrofdagi turli xulq – atvordagi kishilar, shaxsiy tajriba, muayyan tiplar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ommaviy axborot vositalarida yoritilayotgan faktlar katta ahamiyatga ega.

Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy o‘zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan, bular: L.A.Aza, G.M. Belokrilova, A.E. Golomshtok, V.I. Jukovskaya, Ye.A. Klimov, M.X.

Titma, P.A. Shavir, M.G. Davletshin, N.Sh. Shodiev, B.R. Qodirov, E. G‘. G‘oziev va boshqalar[1-14].

Qator tadqiqotlar kasb tanlash, kasbiy faoliyatga yaroqlilik va shaxsning kasbiy o‘zligini anglashi masalalari, kasbiy faoliyatning psixologik talablari va individ faoliyatining psixofiziologik asoslari, kasbiy qiziqishlarning shakllanishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu yo‘nalishlarda M.X.Titma, Ye.A.Klimov, V.G.Maksimov, A.P.Chernyavchkaya, Ye.A.Golomshtok, K.M. Gurievich, N.D.Levitov va boshqalarning olib borgan tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin[7-10].

1. Kasbni ilk tanlash bosqichi. Bu bosqichda bola kasblar olami haqida etarlicha tasavvurga ega bo‘ladi, o‘z ichki imkoniyatlari haqida kam biladi, uning kasbiy intilishi hali sust darajada bo‘ladi. Bu bosqich kichik mакtab yoshiga taalluqli bo‘lib, unda kasbning mazmuni va ish sharoitlari haqida bolada savollar tug‘ilmaydi.

2. Kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini aniqlash bosqichi katta maktab yoshiga to‘g‘ri keladi (15-17 yoshlar). Bu bosqichda ilk professional intilishlar paydo bo‘ladi va rivojlanadi hamda mehnatning turli xil sohalari ichidan o‘ziga ma’qulini tanlash jarayoni kuzatiladi.

3. Kasbiy ta’lim bosqichida tanlangan kasbni o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘ladi.

4. Kasbiy moslashish bosqichi kasbiy faoliyatning individual uslubining paydo bo‘lishi hamda kishining ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog‘lanishi bilan xarakterlanadi.

5. Mehnatda o‘zini ko‘rsatish bosqichi (qisman yoki butunlay) kasbiy mehnatga taalluqli bo‘lgan talablarning (kutilmalarning) bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan bog‘liq holda kechadi.

Shunday qilib, kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash - shaxs kasbiy faoliyatining barcha davrlarini, ya’ni kasbiy intilishning paydo bo‘lishidan tortib to mehnat faoliyatidan butunlay ozod bo‘lgungacha bo‘lgan davrlarni o‘zida mujassamlashtirgan jarayondir. Aytish mumkinki, u insonning butun hayot yo‘lini qamrab oladi. Albatta, bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri kasb tanlash amalga oshiriladiganbosqichdir. To‘g‘ri tanlangan kasb, bir tomonidan, shaxsning ichki imkoniyatlariga mos tushadi va uning insoniy baxti hamda kamolotini belgilaydi, ikkinchi tomonidan esa yaxshi kasb egasining samarali mehnati ta’sirida jamiyat rivoji jadallahshadi.

Shunday qilib, kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlash o‘zida quyidagi psixologik muammolarni mujassamlashtiradi: kasb tanlash, kasbiy yo‘nalganlik, psixologik tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik.

Xulosa va tavsiya. Umuman olganda kasb tanlash muammosi bilan bog‘liq barcha jarayonlar quyidagi holatlarda o‘z echimini topishi ko‘zda tutiladi:

1. Kasb tanlash, kasbga o‘zining mosligini aniqlash, kasbiy shakllanish, kasbiy rivojlanish uzlucksiz davom etuvchi muammo bo‘lib, davrning o‘zgarishiga qarab unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning rolini aniqlash zarurdir.

2. Kasb tanlash, kasbga o‘zining mosligini aniqlash, kasbiy shakllanish, kasbiy rivojlanish uzlucksiz davom etuvchi muammo bo‘lib, davrning o‘zgarishiga qarab unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning rolini aniqlash zarurdir.

3. Talabalarning kasb tanlash va kasbiy shakllanishdagi tasavvurlari atrofdagilarning ta’sirida va mustaqil qaror qabul qilish layoqatiga ega emasligi tufayli yuz bermoqda. Natijada kasbiy shakllanish yo‘nalishi bilan kasbiy maqsad o‘rtasida moslik yo‘qolgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avlaev O. U. Gender differences of social intelligence in student development. Scientific journal "Psychology". 2021. № Pages 1, 34-41.
2. Абрамова Г.С. Практическая психология. Учебник для студентов вузов. – Изд., 6-е., перераб. и доп..- М.: Академический Проект, 2001.- 480 с.
3. Аза Л.А. Особенности профессионального самоопределения молодёжи. Философская и социологическая мысль.-1989.-№ 6.-С 3-10.
4. Ананев Б.Г. О проблемах современного человекознания. -М., 1977. -287 с.
5. Burkhanov A., Avlaev O., Abdujalilova Sh. Responsibility as a criterion for determining personal maturity / E3S Web of Conferences 2021.
6. Давлетшин М.Г. , Захарина М.С. Профессиональная ориентация учащихся. –Ташкент: Учитувчи, 1986.-82 с.
7. Зеер Э.Ф. Психология профессий. Екатеринбург, 1999.-184 с.
8. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. Ростов. Н.Д., 1996.-382 с.
9. Шавир Н.Ш. Психология профессионального самоопределения в ранней юности.-М., 1980-96 с.
10. Ғозив Э.Ф., Жабборов А.М. Фаолият ва хулқ-атвор мотивацияси.-Тошкент, Университет, 2003.-167 б.